

HARAKAT TARZI KATEGORIYASI VA BUNDAY SHAKLLARNING NUTQIMIZDAGI O'RNI

Adiba Abdullayeva

Sharof Rashioy nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Kalit so'zlar: analitik shakl, sintetik shakl, bobo til, fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, kategoriya, harakat tarzi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'makchi fe'llar va ular yordamida shakllangan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari, bunday birliklarning badiiy asarda, umuman, nutqimizda tutgan o'rni haqida gap boradi.

Ключевые слова: аналитическая форма, синтетическая форма, родной язык, глагол, вспомогательная глагольная фраза, категория, способ действия.

Аннотация: В данной статье говорится о вспомогательных глаголах и образованных с их помощью вспомогательных глагольных словосочетаниях, роли таких единиц в художественном произведении, в целом, в нашей речи.

Key words: analytical form, synthetic form, native language, verb, auxiliary verb phrase, category, mode of action.


Annotation: This article talks about auxiliary verbs and auxiliary verb phrases formed with their help, the role of such units in the artistic work, in general, in our speech.

Davr rivojlanib borar ekan, uni ifodalovchi til ham mukammallashib boradi. Bu mukammallashuv jarayoniga hozirgi kunda turkiy tillarda, xususan, o'zbek tili tarixida sintetik shakllarga qaraganda analitik shakllarning faollashuvini olishimiz mumkin. Turkiy tillarda analitik shakllar qadimdan mavjud bo'lgan hodisa. Shu o'rinda analitik shakl tushunchasiga to'xtalamiz. Ikki va undan ortiq so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan shakl analitik shakl deb ataladi. Bitta grammatik kategoriya ni ifodalovchi analitik shakl kamida ikki komponentdan iborat bo'lib, ulardan birinchisi ko'makchi so'z vazifasini o'tasa, ikkinchisi o'zining leksik ma'nosini to'la saqlab qoladi. N.A. Baskakov analitik va sintetik shakllarga so'zning morfologik taraqqiyoti mahsuli sifatida qaraydi: "Turkiy tillarda so'zning morfologik taraqqiyoti jarayonlari erkin so'z birikmalarining uzluksiz grammatikalizatsiyasi bilan bog'liq tendensiya ni aks ettiradi: mustaqil so'zlar birikuvidagi ikkinchi (postpozitsion) komponent ma'nosi mavhumlashadi; so'ng mustaqil so'zning boshqa o'rinda mustaqil ma'nosini saqlovchi yordamchi so'z bilan birikuvi yuzaga keladi; navbatdagi bosqichda ikkinchi komponent mustaqil ma'nosini yo'qotib, analitik grammatik shaklga, va nihoyat, postpozitsion komponent morfemaga – muayyan grammatik ma'no ifodalovchi affiksga aylanadi". Analitik shakllarga fe'l turkumi tarkibidagi harakat tarzi kategoriya ni birliklarini yaqqol misol sifatida olishimiz

mumkin. Ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalari hozirgacha tilshunosligimizda muammoli masala sifatida o‘rganilmoqda. Bunday fe‘llar ikki qismdan, ko‘makchi va yetakchi qismlardan iborat bo‘ladi. Yetakchi qism ravishdosh shaklida bo‘ladi. Ko‘makchi qismda boshlamoq, chiqmoq, qolmoq, olmoq, bermoq, turmoq, yurmoq, tashlamoq, ko‘rmoq, yubormoq kabi fe‘llar o‘z mustaqil ma‘nolarini yo‘qotib, yordamchi ma‘nolarda keladi va fe‘llarning harkat tarzi shakllarini hosil qilishga xizmat qiladi. Asosiy jihat shundaki, ko‘makchi fe‘llar yetakchi fe‘lga yangi ma‘no yuklamaydi, balki yetakchi fe‘lga qo‘shimcha ma‘no beradi. B.A. Serebrennikov, I.Z. Gadjievaning qayd etishicha, tarz, tus nomi bilan ham yuritiluvchi ko‘makchi fe‘llarning hosil bo‘lishi turkiy bobo tilning alohida tillarga bo‘linishi (farqlanishi) davriga to‘g‘ri keladi. O. Byotlingdan boshlab bu xil shakllarga fe‘lning perifrastik shakllari termini qo‘llangan bo‘lsa, 1965-yili A.A. Yuldashvning “Аналитические форма глагола” nomli kitobi nashr etilgach, ikkinchi termin (analitik shakl) ham keng qo‘llana boshladi. Analitik shakl hosil qiluvchi fe‘llar turkiy tillarda miqdor jihatidan turlichadir. D.M. Nasilov maxsus tadqiqotlar tahlili, lug‘at va grammatikalar asosida qadimgi turkiy til yodgorliklarida yigirmata, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida yigirma yettita, tatar tilida yigirma to‘qqizta, tuva va yoqut tillarida yigirmaga yaqin, turk tilida o‘n beshtacha ko‘makchi fe‘llarni qayd etgan. [2] O‘zbek tilshunosligida fe‘l turkumi bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borgan olim A.P. Hojiyev o‘zbek tilida o‘ttizdan ortiq ko‘makchi fe‘llar borligini qayd etdi. R. Sayfullayeva va boshqa tilshunoslarning darsliklarida bu ko‘rsatkich qariyb 50 ga yaqin deb ko‘rsatiladi. Ko‘rinib turibdiki, ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalari tilimizda salmoqli o‘ringa ega. Shunga qaramay bunday so‘zlarni jamlashda ikki xil qarash mavjud. Ayrim o‘rinlarda bunday shakldagi fe‘llar "Fe‘lning modal shakllari" tarkibida tahlil qilingan. Modal shakllar o‘z navbatida ikkiga, sintetik shakl va analitik shakllarga bo‘lingan. Yana ba’zi tilshunolar esa ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalarini "Harakat tarzi kategoriyasi" sifatida bir kategoriyaga jamlashmoqda. Harakat tarzini bildiruvchi so‘zlarni bir kategoriya sifatida qabul qilar ekanmiz, demak, bu kategoriya tarkibida aloqa va aloqada turuvchi birlik zarur. Grammatik kategoriya va unga mansub grammatik shakllar o‘zaro pog‘onali, butun-bo‘lak munosabatlarida bo‘ladi. [1; 166]

Harakat tarzi kategoriyasi ham bir necha ichki bo‘linishlarga ega. Birinchi bo‘linish ikki a‘zoli bo‘ladi, har bir bo‘linish yana o‘z navbatida ichki bo‘laklarga

bo'lnadi:



Quyida ushbu shakllarning ba'zilarini O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridan olingan misollar yordamida tahlil qilamiz.

1.Odamlar jimib qolishdi.Chekka-chekkadagi shishasi qorayib ketgan fonuslarning chirsillashi aniq eshitila boshladi.[6;66]

Mazkur misolda ikkita ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi harakat tarzini ifodalab kelmoqda.Birinchisi,jimib qolishdi,ikkinchisi,eshitila boshladi.Birinchi gapdagi ko'makchi fe'l-qolmoq harakatning kutilmaganda,tez sodir bo'lganligini ifodalashga xizmat qiladi.Atrof jim bo'lgandan so'nggina chirsillagan ovoz eshitalishni boshlagan,ya'ni harakat boshlanganligini ko'rsatmoqda.

2.Turshagimni yeb bo'ldim.Endi danak chaqish uchun o'rnimdan turmoqchi edim,Ammamning ovozi chiqib qoldi.[6;25]

Berilgan misoldagi birinchi gap tarkibida yeb bo'ldim ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi harakatning ayni damda to'laqonli tugaganligini anglatadi.Keling, aniqroq tushunish uchun ushbu fe'lni bir sodda fe'l—yedim bilan qiyoslab ko'ramiz."Turshagimni yedim" deb yozilganda "yeb bo'ldim" fe'lga qaraganda mavhumroq tushuncha namoyon bo'ladi.Balki yana yeyish ham mumkin va yoki ifoda biroz soddaroq ko'rinadi.Yeb bo'ldim fe'lida esa harakat butunlay tugaganini aniq anglab olish mumkin.

3.Qiyin! Shu bechoralarga judayam qiyin.Bizlar-ku o'lmagan qul,tirikchiligimizni o'tkazib turibmiz.[6;137]

Bu gapimizda o'tkazib turibmiz fe'li harakatni davomli muddatda,ba'zan yuz berishini uqishimiz mumkin.Balki keyinchalik tirikchilik yaxshiroq bo'lishi va yoki oldin yaxshi bo'lgan bo'lishi mumkin,ammo ayni damda noma'lum vaqt davomida ushbu harakat davom etishini ko'rsatib beradi.Demak,turmoq ko'makchi fe'li harakatni davomli muddatda ora-sira bajarilishini ko'rsatadi.

4. Dadam qoshini chimirib shaftolining po'stini archib berdi[6;37]. Oqsoqol bo'lsa oyog'iga kiyib yurgan etigini ham yechib berdi[6;156]. Bermoq ko'makchi fe'liga ikki misol keltirib o'tdik. Bermoq ko'makchi fe'li harakatning boshqalar uchun bajarilishini ko'rsatadi. Yuqoridagi misolda ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin. Harakat tarzi kategoriyasi fe'l tasniflovchi kategoriyalari sirasida nisbat va bo'lishli-bo'lishsizlikan keyin joylashgan. Chunki fe'lning bu kategoriyaga munosabati doimiy emas[1;202]. Bunday shakllar badiiy asarlarda ko'plab uchrash tabiiy. Chunki ular nutqimizni go'zallashtiruvchi, ta'sirchanligini oshiruvchi, tinglovchiga harakatning qay tarzda ketayotganini aniq ko'rsatishga xizmat qiluvchi muhim birliklar bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalov M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. — Tosh.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009. — 416 b.
2. Uralov A. Morfemikada murakkab shakllarning hosil bo'lishi. Avtoreferat. Toshkent-2020.
3. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. — Tosh.: O'zbekiston, 1992. — 399 b.
4. H., Qodirova M., G'ulomov A., Abduraimov M. Ona tili. Darslik. Tosh.: O'qituvchi, 2004. — 192 b.
5. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. — T., 1985.
6. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman. — Tosh.: "Sharq", 2012. — 624 b.